

MINTAQA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI: MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Abdinazarov Xusan Shaymanovich

*Qarshi davlat texnika universiteti "Biznes
va boshqaruv" kafedrası o'qituvchisi.*

<https://orcid.org/0009-0002-1464-9428>

xabdunazarov0770@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqa sanoatini rivojlantirish jarayonlarining zamonaviy tendensiyalari, sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda hududiy sanoat rivojlanishida yuzaga kelayotgan tizimli muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqa sanoatini barqaror rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish va hududiy iqtisodiy rivojlanish samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.


Kalit so'zlar: mintaqa sanoati, sanoat salohiyati, hududiy rivojlanish, sanoat tarkibi, iqtisodiy barqarorlik, sanoat siyosati.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida mintaqalar iqtisodiy rivojlanishining barqarorligi ko'p jihatdan sanoat tarmog'ining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Mamlakatimiz mintaqalar sanoatini rivojlantirish masalasi muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasida hududiy sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiyalash hamda qayta ishlash sanoati ulushini oshirish asosiy vazifalar sifatida qayd etilgan. Sanoat sohasi hududiy iqtisodiyotning yetakchi tarkibiy qismi bo'lib, ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda hududning umumiy iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda mintaqa sanoati rivojida tarkibiy o'zgarishlar jadallashib, ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiya qilish jarayoni kuchaymoqda. Xomashyo yetkazib berishga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining 2021–2025 yillardagi rivojlanish jarayonlarini mualliflik yondashuvi asosida tahlil qiladi. Tadqiqotda hudud sanoatining rivojlanish sur'atlari, tarkibiy o'zgarishlari hamda qayta ishlash sanoatining ustuvor ahamiyati statistik ko'rsatkichlar orqali yoritilgan. 2021–

2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Ushbu holat hududda ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va sanoat samaradorligining oshib borayotganini ko'rsatadi.

1-rasm.



Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida sanoat rivojlanishi ekstensiv omillardan ko'ra intensiv va texnologik omillarga tayanmoqda. Korxonalar sonining nisbatan qisqarishi fonida ishlab chiqarish hajmlarining ortib borishi sanoat jarayonlarining konsolidatsiyalashuvi bilan izohlanadi. Ushbu tendensiya hududiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu izlanishdan xulosamiz mintqa sanoatini rivojlantirish jarayoni tarkibiy o'zgarishlar, texnologik yangilanish va samarali boshqaruv mexanizmlariga asoslanadi. Mintaqa sanoatini rivojlantirishda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun hududiy sanoat siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish zarur. Har bir mintaqaning resurs salohiyati va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari, sanoat korxonalarida texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi. Mavjud muammolarni bartaraf etish va zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish orqali mintaqalarning sanoat salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyati yaxshi darajada kengayadi. Bundan tashqari sanoat zonalarida zamonaviy tizimga mos integratsiyalashgan va raqamlashtirilgan yangi formatdagi infratuzilmalarni tashkil etish muhim jihatdir.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida : PF-158-son Farmoni. -Toshkent, 2023. <https://lex.uz/docs/6600412>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va sanoat salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : PQ-105-son Qarori. -Toshkent, 2022 <https://lex.uz/docs/6000104>
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. **O‘zbekiston sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari**. Statistik to‘plam. - Toshkent, 2021-2024. <https://stat.uz/>
4. Abdullayev A.A., Karimov B.B. **Hududiy sanoatni rivojlantirishning institutsional asoslari** // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, 2021. -№4.-B. 45-52.
5. Xolmuradov D.X. **Mintaqa sanoati samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari** // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. - Toshkent, 2022. -№2. - B. 33-40.
6. Wooldridge J.M. **Introductory Econometrics: A Modern Approach**. - 6th ed. Boston: Cengage Learning, 2016. <https://www.cengage.com/c/introductory-econometrics-a-modern-approach-6e-wooldridge/>
7. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatining sanoat ko‘rsatkichlari. — Qarshi, 2025. <https://qashstat.uz>